



TIL REPERTUARINING KENGAYISHI: SABABLAR, IMKONIYATLAR VA NATIJALAR

Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi

p.f.f.d.

Aslini olib qaraganda, uzoq yillardan buyon insonlar orasida boshqa tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor kuchli bo'lib, mahalliy tildan tashqari boshqa tillardan ham xabardor bo'lish yuqori fazilat hisoblangan. Sharq allomalaridan bo'lgan Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Farobiy, Maxmud Zamaxshariylar bir qator tillarda ijod qilganliklari va bu "zullisonaynlik" deb yuritilganligi buning yorqin dalilidir.

Ancha yillar avval, Mario Wandruszka o'zining "Die Mehrsprachigkeit des Menschen" (1979) kitobida ko'ptillilik har bir shaxsning tabiatiga xosdir deb, buning psixolingvistik sababi sifatida hatto o'z ona tilidagina so'zlashadiganlar ham ko'p hollarda turli til variantlari (standart nutq, dialekt, so'zlashuv tili, maxsus jargonlar, ona tilining oldingi lingvistik shakllari)dan turli vaziyatlarga muvofiq boshqacharoq ko'rinishlarda foydalanishlarini ko'rsatgan va buni "internal (ichki) ko'ptillilik" deb nomlagan. Bunga esa odamlarning intellektual rivojlanishi jarayonida o'z tillaridan tashqari boshqa tillarni ham o'rganish qobiliyati qo'shildi ("tashqi ko'p tillilik").

Davrlar o'tgani sayin davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy kabi turli munosabatlar jarayoni, xoh ijobiy, xoh salbiy aloqalar ko'rinishida bo'lsin, o'z o'zidan ko'ptillilik rivojiga hissa qo'shishda davom etdi. "Masalan, ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston, xususan Toshkent shahriga juda ko'p sonli turli millat vakillari evakuatsiya qilinadi. Odamlar bilan birga yirik sanoat korxonalari, ilmiy akademik tashkilot va muassasalarning ko'chirib kelinishi fan va ta'limning integratsiyasiga muhim hissa qo'shadi. O'zbek va turli millatga mansub madaniyatlarning yaqinlashuvi o'ziga xos madaniy simbiozni shakllantirdi. Aholi orasida ko'ptillilik paydo bo'ldi, jamiyatning intellektual iqlimi o'zgarib, dinlararo va millatlararo totuvlik kuchaydi" -deydi K.Kalanov va U.Sabirovalar. Migratsiya hodisalari esa yagona sabab emas, balki davlatlararo iqtisodiy munosabatlarning kengayishi, globallashuv jarayonlari, yangi kashfiyotlar va albatta turizmnining tobora rivojlanib borishi ham ko'ptillilikni yanada ommalashtirib yubordi.

So'ngi yillardagi mana shunday tarzda jadallashib borayotgan globallashuv jarayoni boshqa barcha sohalar bilan bir qatorda chet tili o'qitish hamda o'rganishga bo'lgan talabga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Jumladan, o'sib borayotgan yosh avlodlarning chet tillarini bir emas balki bir nechtasini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi alohida ahamiyat kasb etib, endilikda ko'ptillilik muhitida kerak bo'ladigan o'ziga xos yangi metodlari va o'qitish texnologiyalariga e'tibor kuchaya boshladi.



Ko'p tillilik bizning shaxsiy rivojlanishimizning bir qismidir. Hayot davomida odamlar faol aloqada bo'lar ekan, yanada ko'proq tillarni bilishga intiladi. Bu tabiiy ravishda kundalik hayotda yoki qo'shimcha til o'rganish kurslarida hamda o'quv faoliyati davomidagi darslar orqali sodir bo'lishi mumkin. Individual ko'p tillilik turli sabablarga ko'ra, turli xil muhitda va turli shakllarda rivojlanadi. Dunyoning ba'zi qismlarida, masalan, Afrikaning ko'p qismlarida mahalliy aholilar bir-biri bilan yaqin aloqada yashaydilar va bir nechta tillardan muqobil foydalanish kundalik hayotining muntazam qismidir. Shuningdek, modernizatsiya jarayonida milliy va xalqaro tillarni ham o'rganish zarurati paydo bo'lmoqda. Bu esa qisqa muddatda odamlarning til repertuarlarini oshiradi. Boshqa mamlakatlar bilan aloqalar ham, albatta, til o'rganishga turtki beradi.

Ma'lumki, hozirgi davrda yangi tilni o'rganayotgan aksari odamlar ko'pincha bir yoki bir nechta ona tili bo'lmagan boshqa tillarni bilish tajribasiga allaqachon ega bo'lishadi. Oliy ta'limni misol tariqasida olib qarasak, bu, masalan, chet tili yo'nalishidagi boshqa xorijiy til o'rganayotgan talabalarga, ikkinchi yoki keyingi chet tilini o'rganayotgan talabalarga, shuningdek, o'qishda birinchi chet tilini o'rganayotgan ba'zigi talabalar yoki migrant bolalarga ham tegishli. Ikkinchi tilni o'zlashtirish (SLA) bo'yicha an'anaviy tadqiqotlarda odatda ilk marotaba chet tilini o'rganayotganlar va chet tilisiga qo'shimcha ravishda yana yangi tillarni o'rganishni davom ettiradiganlar o'rtasida hech qanday farq ko'rsatib o'tilmagan. Ularning barchasi ikkinchi til o'rganuvchilar sifatida qabul qilinadi. Yaqin vaqtgacha birinchi til (keyingi o'rinlarda T1) o'quv jarayoniga tillararo ta'sirning potentsial manbai sifatida e'tiborga olingan yagona til edi va ilgari o'rganilgan boshqa tillarning har qanday ta'siri odatda e'tiborga olinmagan yoki ahamiyatsiz deb hisoblangan. Biroq, hozirgi kunga kelib insonlar orasida ko'p tillilikka qiziqish ortib borayotganligi sababli, bu qarash o'zgarmoqda. So'nggi o'n yillikda uchinchi tilni o'zlashtirish (TLA) bo'yicha jadal rivojlanayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bir yoki bir nechta chet tillarini o'zlashtirish bo'yicha oldingi tajribaga ega bo'lgan o'quvchi uchun vaziyat birinchisidan farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, hozirda o'quvchining avvalgi til tajribasidagi murakkablilik o'lchovi hisobga olinmoqda va uning tarkibiy qismlari ustida qator izlanishlar olib borilmoqda. Buning bir jihati shundaki, T1 o'rganuvchisi, ikkinchi til (keyingi o'rinlarda T2) o'rganuvchisi va yana qo'shimcha tillarni o'rganuvchining topshiriqni bajarish uchun turlicha imkoniyatga ega ekanligi til o'zlashtirish jarayoniga turlicha ta'sir qiladi. Xyufeysen buni o'zining ishlab chiqqan bir nechta "Faktor modeli"da til o'rganish jarayonini boshqaradigan bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillarni ko'rsatish orqali ifodalaydi hamda ko'ptillilik yangi konseptining o'ziga xos tabiati haqida shunday fikr yuritadi:

➤ Bir necha tillar o'rganilganda o'rganuvchi keyingilarini "0"dan o'rganmaydi, balki o'zida mavjud til xabardorligi darajasi har yangi til qo'shilishi bilan kengayib boraveradi;



➤ Har bir o'rganilayotgan tillarda alohidadan mahalliy til darajasiga erishish zaruriyati yo'q. Bir xorijiy tilda mukammallikka chiqilganidan keyin qolganlarini ongiy ravishda baholay olish mumkin, amalda qo'llash osonroq va zaruriy xulosalar chiqarish malakasi allaqchon avtomatik ravishda ishga tushadi;

➤ Har bir o'rganilgan tilda kompetentlik darajasi va til tabiatidan xabardorlik turlicha bo'lishi mumkin va bu tabiiy holdir.

Christ ta'rifi bilan aytadigan bo'lsak, u "ostona" ("threshold") metaforasini qo'llaydi va "agar bir inson turli tillar honadoni tomon ilk pog'onadan o'tishni o'rganib olsa, u ko'ptilli shaxsdir" deb tushuntiradi.

O'quvchi vaqt o'tishi bilan birinchi tilni o'zlashtirishdan ikkinchi tilni o'rganishga, so'ngra uchinchi tilni o'rganishga o'tsa, yangi omillar qo'shiladi, shuning uchun ta'sir etuvchi omillar to'plami tobora kuchayib murakkablashib boraveradi. Ikkinchi tildan uchinchi tilga o'tishda qo'llaniladigan yangi omillar ana shu til o'rganishdagi til tajribasi bilan bog'liq. Ular chet tilining o'ziga xos omillaridan (masalan, chet tilini o'rganish tajribasi va strategiyalari, oldingi o'rganilgan tillarning tillaro jihatlari, o'rganilayotgan tilning o'zaro jihatlari) va lingvistik omillardan (T1ga qo'shimcha ravishda oldingi T2 bilimi) iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hufeisen, B. 2005. Multilingualism: Linguistic models and related issues. In Hufeisen, B. and Fouser, R. J. (eds.), *Introductory Readings in L3*, 31–45.
2. Hufeisen, B. 2010. Theoretische Fundierung multiplen Sprachenlernens – Faktorenmodell 2.0. *Jahrbuch Deutsch als Fremdsprache* 36: 200–207
3. Ismoilova, S. (2023). CHET TILI O'RGANISHDA KOMUNIKATIV HAMDA INTERFERENTIV KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI. *Interpretation and researches*, 1(14).
4. Ismoilova, S. X. (2023). QO 'SHIMCHA CHET TILI O 'RGANISH JARAYONIDA ESKI TAJRIBALARGA TAYANISHNING INTERFERENTIV KOMPETENTLIKNI SHAKILLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (10), 770-777.
5. J.Jalolov Chet tili o'qitish metodikasi. "O'qituvchi", Toshkent 2012
6. Kalanov, K., Sabirova U. *Ijtimoiy antropologiya. o'quv qo'llanma* / K. Kalanov, U. Sabirova. - Toshkent: «Go To Print», 2020.-50 b.
7. Radjabova, F. R., & Radjabova, M. R. (2022). CHET TILINI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 316-327.

